

**ПЕДАГОГИК ВА**  
**ПСИХОЛОГИК**  
**ТАДҚИҚОТЛАР**

**МАРТ, 2023**

**3-СОН**



**PEDAGOGICAL AND  
PSYCHOLOGICAL STUDIES**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ**



ISSN: 2181-4066  
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ  
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
НОМЕР-3

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК  
ТАДҚИҚОТЛАР  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ  
3-СОН

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES  
SCIENTIFIC-PRACTICAL JOURNAL  
VOLUME-3



ТОШКЕНТ - 2023

**Бош муҳаррир:**

Қаландарова . – психология фанлари доктори, профессор

**Масъул муҳаррир:**

Насиров К. – педагогика фанлари номзоди, доцент

**Тахририят аъзолари:**

Абдужаббарова М. – педагогика фанлари номзоди, доцент  
Абдурахимов Қ. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори  
Акмалов А. – педагогика фанлари номзоди, доценти  
Акрамова Ш. – педагогика фанлари доктори, профессор  
Алиев М. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори  
Джураев Д. – педагогика фанлари доктори  
Душанов Р. – психология фанлари номзоди, доценти  
Негматовна Г. – педагогика фанлари номзоди, доцент  
Разакова Р. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори  
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори  
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори  
Тўйчиева С. – психология фанлари номзоди, доцент

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни **№ 054834**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

**Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Абдурахмон Хасанов**

**Тахририят манзили:** <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

**Телефон номер:** +99894-410 11 55, **E-mail:** [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

*Педагогика фанлари*

**O'RINBOYEVA Kumushoy Sultonbek qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti  
Informatika va aniq fanlar kafedrasida o'qituvchisi*

**MADAMINJONOVA Ruxshona Dilmurodjon qizi**

*1-kurs fizika va astronomiya yo'nalishi talabasi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7737636>

## OLIV TA'LIM TIZIMIDA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING AMALIY JIHATLARI

### ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda ta'lim tizimida o'quv mashg'ulotlarini noan'anaviy tarzda olib borish, yoshlarning yetarli bilimga ega bo'lishlarida muhim hisoblanadi. Ayniqsa bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda bir qancha masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim. Maqolada texnologik ta'lim fani o'qituvchilarini tayyorlashda amaliy darslarni o'rni va ahamiyati bundan tashqari darslarni tashkil qilishdagi oliy ta'lim tizimidagi kamchiliklar va yutuqlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, texnik ijodkorlik, dizayn, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kommunikativ qobiliyat, media vositalari.

### ANNOTATION

Nowadays, it is important to conduct educational activities in an unconventional way in the educational system, in order for young people to have sufficient knowledge. It is necessary to pay special attention to a number of issues, especially in the training of future pedagogues. In the article, technological In addition to the role and importance of practical lessons in the training of science teachers, it is discussed about the shortcomings and achievements of the higher education system in the organization of lessons.

**Key words:** competence, technical creativity, design, modern pedagogical technologies, communicative ability, media tools.

### АННОТАЦИЯ

В настоящее время важно вести воспитательную деятельность нетрадиционным способом в системе образования, чтобы молодежь обладала достаточными знаниями. Необходимо уделить особое внимание ряду вопросов, особенно при подготовке будущих педагогов. В статье, помимо технологической роли и значения практических занятий в подготовке учителей естественных наук, говорится о недостатках и достижениях системы высшего образования в организации уроков.

**Ключевые слова:** компетентность, техническое творчество, дизайн, современные педагогические технологии, коммуникативность, медиасредства.

Kundan-kunga hayotimizda juda katta o'zgarishlar ro'y bermoqdaki, bu o'zgarishlardan ta'sirlanmasdan va bularga javob qaytarmasdan ilojimiz yo'q. Ayniqsa ta'lim sohasida bo'layotgan tub burilishlar ta'lim tizimini yangitdan isloh qilishga va pedagoglarni o'zini qaytadan kashf etishga undamoqda. Har bir fan rivojlanishi va ta'limda qandaydir yutuqqa erishishi uchun avvalo pedagoglarning uzluksiz ta'lim tizimidagi yangiliklardan boxabar bo'lishlari shart hisoblanadi. Davlatimiz raxbarining 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilishlari ham yurtimizda ta'limga qay darajada e'tibor kattaligidan dalolatdir [1].

Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilishni zamonaviy axborot dunyosining jadal rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb xarakterlash mumkin. Media vositalarning (kompyuter, proektor, elektron doska, 3 D printer va h.k.) ta'lim-tarbiya jarayoniga faol kirib kelishi o'qituvchilar kasbiy faoliyatida o'qitishning innovatsion metodlarini, vositalarini, turlarini, shakllarini, umuman, pedagogik texnologiyalarini zudlik bilan joriy etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashda muhim natijalardan biri - ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmasdan, qisqa vaqt oralig'ida yuksak natijalarga erishishdir [2].

Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni ta'lim oluvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum bir faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha kreativ yondashuvni talab etadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini majburan qo'llash va singdirish orqali maqsadga erishib bo'lmaydi. Aksincha, tajribali o'qituvchilar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan foydalanish bilan birga ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim oluvchining o'quv jarayonlarida mustaqil ishlashga, o'z-o'zini tarbiyalashga, o'qitishga, o'z faolligini oshirishga, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga undaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari qatoriga mediatexnologiyalarini joriy qilish zarurati kundun-kunga oshib bormoqda [3].

Ta'lim-tarbiya jarayonidagi innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, dars o'tishning interfaol usullari o'z-o'zidan ta'lim sohasiga kirib kelmaydi. Avvalo, o'qituvchidan bilim, ijodiy mehnat va kasb mahorat talab qilinadi. Chunki o'qituvchi faoliyati yangilanmasa, ta'limda samaradorlikka erishib bo'lmaydi [3].

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi darslarning qiziqarli, bahs-munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki bo'ladi. Mana shu holatdagina o'quvchilar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, jarayonni umumiy nazorat qilish, murakkab vaziyatlarda yo'l yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi. Bugungi kunda texnologiya ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, innovatsion texnologiyalardan foydalanishda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligi.

Ikkinchidan, innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini berishi.

Uchinchidan, innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'qituvchini ta'lim tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab samarali natija olgunga qadar bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undashi.

To'rtinchidan, innovatsion texnologiyadan foydalanish yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi Kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan zamonaviy talablarini amalga oshirishni ta'minlashi.

Beshinchidan darslarda innovatsion ta'lim texnologiyalardan foydalanish o'qitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir o'quvchiga individual-kreativ yondashish imkonini berishi [8-9].

Har qanday innovatsion texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy harakterdan kelib chiqqan holda, o'quvchilarni kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni tarbiyalayotganiga bog'liq. Innovatsion texnologiya asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar talabalarning muhim hayotiy yutuq va muammolar shaxsiy munosabatlarini bildirishiga, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'quvchilarda kreativ yondashuvni shakllantirishida innovatsion ta'lim texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu bois ta'lim tizimiga yangi o'quv dasturlarini joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish bilan birga innovatsion ta'lim texnologiyalari qo'llashga ham muntazam ravishda e'tibor qaratib borish zarur.

Oldimizdagi dolzarb masalalardan biri bo'lajak pedagoglarni ta'lim sohasidagi yangiliklar bilan uzviy bog'lash. Har bir pedagog oliy ta'lim tizimida olgan bilimlarini dars jarayonlariga qo'llashi va sifatli dars tashkil etishi juda muhimdir. O'quvchilar maktablarda avvalo ijodiy fanlarga katta qiziqish bildirishadi, sababi bu fanlar ma'lum qonunlar va formulalar yod olish talab etmaydi. O'quvchilarning ilk ta'lim jarayonidayoq ijodkor va kreativ g'oyalar asosida qobiliyatlari kashf etiladi. Qiz bolalarda tikish, bichish, zardo'zlik, dizaynerlik, to'qish va yigitlarda esa turli buyumlarni yasash va ularga ishlov berish, kulolchilik, naqqoshlik kabi yo'nalishlarda qiziqish uyg'onishi tabiiy. Bu o'quvchilarning qiziqishlari bardavom bo'lishida esa texnologiya fani o'qituvchisi darslarni to'g'ri tashkil qilishi va o'quvchilar qiziqayotgan yo'nalishlarda yetarli bilimlarga ega bo'lishi zarur hisoblanadi.

Bu jarayonda oldimizga bir qancha maqsadlarni qo'yishimiz maqsadga muvofiqdir

- Texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion yondashuv asosida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi (Texnik ijodkorlik va dizayn moduli asosida)

- Darslarni tashkil etishda zamonaviy mexanizmlardan foydalanish hamda talabalarga dizayn va ijodkorlik yo'nalishida o'quvchilar bilan ishlashni takomillashtirish.

- Maktablarda texnologik ta'lim darslarini tashkil qilishda o'quvchilarning ijodkorlik g'oyalarini yuzaga chiqarish uchun zamonaviy dars o'tish metodlarini qo'llash

Barcha sohalarda ham nazariy bilimlar, dars tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyalar va juda ham ko'p adabiyotlar mavjud, ammo ta'lim sohasida nazariy bilimlarning o'zi kamlik qiladi.

Ta'lim sohasi pedagoglardan kasbiy mahoratni, o'z-o'zini rivojlantirishni talab etadi, va bu oldimizga birqancha vazifalarni qo'yadi

1. Texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanishni taxlil qilish.

2. O'quvchilarning texnik ijodkorlik qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishda zamonaviy metodlarni qo'llash.

3. Dizaynerlik ishlarini o'rganishda va ta'lim sohasiga qo'llashda xorij tajribasidan foydalanish.

4. O'qituvchilarning ta'lim sohasidagi yangiliklardan uzluksiz xabardor bo'lishlari uchun moddiy texnik bazalarning yangilanishi.

Texnologik ta'lim fanini o'qitishdagi noan'anaviy usullardan foydalanish va Yevropa davlatlari tajribalarini qo'llash orqali darslarni tashkil etish usullarini o'rganish oldimizdagi muhim masala. Biz faqatgina eskirgan usullardan foydalanishimiz bu bizning milliyligimizni anglatmaydi. Agar atlas matosidan faqat ko'ylak lozim yaratamiz deb aytsak yaqin kelajakda moda bilan hamnafas yuruvchi yoshlar orasida bu mato o'z qiymatini yo'qotadi. Hamisha boshqa mamlakatlarda ta'lim sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lish va kerakli bilimlarni o'zlashtirish foydadan holi bo'lmaydi. Ushbu maqolada hozirgi kunda texnologik ta'lim fanini o'qitishdagi muammo va kamchiliklar yoritilgan bo'lib, darslarni qiziqarli va tushunarli tashkil etishda e'tibor berilishi kerak bo'lgan jabxalar yoritilgan. Oliy o'quv yurtlarida texnologik ta'lim fanini tashkil etishdagi moddiy texnik bazaning yetarli ekanligi va ulardan foydalanishdagi tajribalarning yetarli ekanligi muhim hisoblanadi. Doska va bo'r orqali dars jarayonlarini yakunlash ko'pincha o'quvchilarning mahoratini ko'rsata olishlarida qiyinchilik tug'diradi. Darslarda zamonaviy media qurilmalardan foydalanish ko'p maktablarni og'riqli nuqtasi hisoblanadi, sababi ko'p maktablarning moddiy texnik bazasi to'la rivojlanmagan [4].

Darslarda videoprojektorlardan foydalanish, zamonaviy tikuv mashinalari va dastgohlardan foydalanish o'quvchilar qiziqishini birmuncha oshiradi. So'nggi yillarda ilm-fanga bo'lgan yuksak e'tibor tufayli ta'lim sohasida juda katta o'zgarishlar ro'y bermoqda, berilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish va yetuk mutaxassis kadrlarni yetishib chiqishlarini ta'minlash uchun oliy ta'lim tizimida sifatli ta'lim tashkil etish juda ham muhim hisoblanadi. Dizaynerlik va texnik ijodkorlik malakalarini oshirishda zamon bilan hamnafas holda rivojlanish oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlarimizdandir. Texnologik ta'lim fani o'qituvchisi bir vaqtda bir nechta yo'nalishlarni bilishi muhim hisoblanadi. Yaxshi dizayner bo'lishi uchun avvalo chizmalar chizish qobiliyati, tikish bichish uchun esa matematika kabi fanlardan, o'zining tikuv mashinasini sozlashi uchun esa fizika fanlaridan xabardor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shu sabab maktab davrida har bir fanni o'zlashtirish muhim hisoblanadi.

## IQTIBOSLAR

1. A.Karimov. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1998. 63 b. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: O'zbekiston, 2008. -173 b.
2. Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lish kerak.O'zbekiston. 2017 y.
3. Vozorboyeva Dilkushodxon Xamidjonovna "Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlarning qo'llanilishi" ilmiy maqola.2022-yil.
4. Авазбоев, А., & Хожикаримова, Г. (2019). СОЦИАЛЬНОПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КРЕАТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ. Вестник науки, 5(6), 150-153.